

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

AXROROVA NILUFAR UKTAMOVNA

**MINTAQALARDA TALABALAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY JIHLTLARI (MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI
MISOLIDA)**

08.00.17 –Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Axrorova Nilufar Uktamovna

Mintaqalarda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari
(Markaziy Osiyo mamlakatlari misolida) 3

Ахророва Нилуфар Уктамовна

Организационно-экономические аспекты развития студенческого туризма в
регионах (на примере стран Центральной Азии)..... 29

Akhrorova Nilufar Uktamovna

Organizational and economic aspects of student tourism development in the regions
(Case of Central Asian Countries)57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of publications62

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

AXROROVA NILUFAR UKTAMOVNA

**MINTAQALARDA TALABALAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING
TASHKILY-IQTISODIY JIHLTLARI (MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI
MISOLIDA)**

08.00.17 –Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3661 -raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ibragimov Nutfillo Salimovich,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Rasmiy opponentlar:

Qodirov Aziz Anvarovich,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Mirzayev Abdulla Tapilovich,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.1.08.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil «5» 06 kuni soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 221-26-46, faks: (998 62) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (998 65) 224-67-00, faks.: (998 65) 224-57-00, e-mail: info@buxdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « _____ » _____ kuni tarqatildi. (2026-yil « 19 »

05

dagi № 2/26 raqamli reyestr bayonnomasi).



O.X.Xamidov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

D.Sh.Yavmutov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, i.f.d., professor

B.N.Navruz-Zoda
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqaviy darajada talabalar turizmi mahalliy iqtisodiy rivojlanish va xalqaro ta'lim integratsiyasining strategik vositasi sifatida shakllangan murakkab tashkiliy-iqtisodiy tizimdir. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, jahonda mintaqalarda talabalar turizmi orqali jalb qilinadigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar yillik 89,3 milliard AQSh dollariga yetdi. Jahon bo'ylab mintaqaviy talabalar turizmi segmenti mahalliy turizm daromadining 127 milliard dollarini yoki mintaqalardagi barcha ta'lim eksportining 31%ini tashkil etadi¹. Jahonda mintaqalarda talabalar turizmi an'anaviy sayohat shakllaridan uzoq muddatli yashash, mahalliy aholi bilan chuqur integratsiya va mintaqaviy iqtisodiy klasterlar rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatish xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Jahonda talabalar turizmining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalarini aniqlash, ayniqsa, talabalar turizmini samarali boshqarish orqali hududlar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, global talabalar turizmi infratuzilmasini yaratish, hududlarning talabalar turizmini tashkil etishga tayyorlik darajasini oshirish, talabalar turizm yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish orqali maqsadli talaba-sayyohlar auditoriyasini jalb qilish, hamda universitetlar va ta'lim markazlarida talabalar oqimining istiqbolli ko'rsatkichlarini baholash, sohada to'siq bo'lib kelayotgan muammolarni aniqlash asosida samarali tashkiliy-iqtisodiy yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazishga ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda yoshlar turizmini rivojlantirish uchun yetarli salohiyat mavjud bo'lib, uni izchil rivojlantirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026 yillarda qabul qilingan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish, xorijiy sayyohlar sonini esa 9 million nafarga yetkazish bo'yicha muhim strategik vazifalar belgilab berilgan². Mazkur vazifalarni ro'yobga chiqarishda yoshlar turizmining subsegmenti — talabalar turizmini rivojlantirish, uning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarini mukammallashtirish, yoshlar tashrif joylarining jozibadorligini oshirish, ilmiy asoslangan turistik klasterlar yaratish, innovatsion xizmatlar va investitsiya modellarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda davlat siyosatini ilmiy tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirish, sohaga xususiy sektor va xalqaro hamkorlarni jalb etish mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 18-iyuldagi PF-102-son "O'zbekiston Respublikasida turizm infratuzilmasini yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini yanada oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 30-aprel PF-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-

¹<https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/in-full/6-regional-results/>,
<https://finance.yahoo.com/news/educational-tourism-market-expected-reach-185600696>.

² https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvar PF-5611-son “Turizm sohasini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2025-yil 11-sentabrdagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-sentyabr PQ-794-son “2019-2023 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabr 543-son “2022-2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 27-aprel 215-son “2022-2026-yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 27-may 331-sonli “Maktabdan tashqari ta‘lim tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 10-iyul 433-son “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, ushbu sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Talabalar turizmini rivojlantirish va mintaqaviy iqtisodiyotga ta‘sirini tadqiq etish sohasida xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlar quyidagicha tahlil qilinishi mumkin. Talabalar turizmi va yoshlar sayohatining nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etishga olimlaridan Greg Richards, Piter L. Pirs, Maykl Xoll, Erik Koxen, Jon Svorbruk, Stiven J. Peyj, Kris Kuper, Jennifer Leyng, Saymon Xudson, Martin Kozak, Dik Pop, Velin Smit, Robert Deyvdson, Alaster M. Morrison, Muhammad Rizo Sharif, Xans Kraemer, Nil Leyper, Mill va Morrison, Krompton, Maslou, Kolb, Mezirou, Xofstede va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan³.

³ Richards, G. A Global Review of Youth Travel / G. Richards. – Amsterdam: ATLAS, 2003. – 156 p. Richards, G. New Horizons III: A Survey of the Global Youth and Student Traveller / G. Richards. – Amsterdam: WYSE Travel Confederation, 2007. – 234 p. Pearce, P.L. Tourist Behaviour and the Contemporary World / P.L. Pearce. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – 312 p. Hall, M. Adventure, Sport and Health Tourism / M. Hall. – London: Belhaven Press, 1992. – 267 p. Cohen, E. Student Mobility and Narrative in Europe / E. Cohen. – London: Palgrave Macmillan, 2019. – 298 p. Swarbrooke, J. Sustainable Tourism Management / J. Swarbrooke. – Wallingford: CABI, 2014. – 376 p. Page, S.J. Tourism Management: An Introduction / S.J. Page. – Harlow: Pearson, 2015. – 542 p. Cooper, C. Essentials of Tourism / C. Cooper. – Harlow: Pearson, 2018. – 456 p. Laing, J. Experiential Tourism and Meaningful Travel / J. Laing. – Bristol: Channel View Publications, 2020. – 278 p. Hudson, S. Marketing for Tourism, Hospitality & Events / S. Hudson. – London: SAGE Publications, 2017. – 398 p. Kozak, M. Tourist Behavior: A Psychological Perspective / M. Kozak. – Wallingford: CABI, 2016. – 334 p. Pope, D. Adventure Tourism and Sport Tourism / D. Pope. – Bristol: Channel View Publications, 2018. – 245 p. Smith, V. Hosts and Guests: The Anthropology of Tourism / V. Smith. – Philadelphia: University of Pennsylvania Press, 2013. – 356 p. Davidson, R. Business Travel and Tourism / R. Davidson. – Harlow: Pearson, 2019. – 289 p. Morrison, A.M. Marketing and Managing Tourism Destinations / A.M. Morrison. – London: Routledge, 2021. – 478 p. Sharif, M.R. International Student Migration and Academic Tourism / M.R. Sharif. – New York: Springer, 2020. – 198 p. Kraemer, H. Youth Mobility and Cultural Exchange

Talabalar turizmi va ta'lim turizmining integratsiya jarayonlarini o'rganishda Smit va Puczko, Ritchi va Lyuis, Bayvoter, Blekvell, Minnaert, Meytlend va Miller, Bolton va Stenford, Nesh va Martin, Bianki va Stivenson, Xannam va Ateljevich, Fujikura, Shou va Uilyams kabi tadqiqotchilar asos solgan nazariy konseptsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi⁴. Xalqaro talabalar mobilligini boshqarish va siyosiy mexanizmlarni tahlil qilishda YUNESKO, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon turizm tashkiloti, Xalqaro ta'lim instituti (IIE), Xalqaro ta'lim mutaxassislari assotsiatsiyasi (NAFSA), Fransiyada ta'lim agentligi (Campus France), Germaniya akademik almashinuv xizmati (DAAD), Niderlandiyaning xalqaro oliy ta'lim hamkorligi tashkiloti (Nuffic) kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari keng foydalanilgan.

O'zbekiston olimlari va mualliflari tomonidan talabalar turizmi va mintaqaviy rivojlanishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy, uslubiy va amaliy jihatlari juda kam o'rganilgan. Mamlakatimizning aksariyat olimlari asosan turizm iqtisodiyoti, mintaqaviy rivojlanish va raqamli transformatsiya muammolarini tadqiq etishga hissa qo'shganlar. Ular orasida B.N.Navruz-Zoda, O.X.Xamidov, N.Tuxliyev, D.Sh.Yavmutov, M.M.Muxammedov, D.X.Aslanova, N.S.Ibragimov, I.S.Tuxliev, A.Norchaev, A.J.Abdullayev, A.A.Qodirov, X.R.Xamroev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, G.R.Xidirova, M.T.Alieva, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubov, S.Sh.Xalilov, N.U.Maxmudova va boshqalarning ishlari e'tirof etiladi⁵.

Programs / H. Kraemer. – Berlin: De Gruyter, 2017. – 223 p. Leiper, N. Tourism Systems: An Interdisciplinary Perspective / N. Leiper. – Palmerston North: Massey University, 1990. – 312 p. Mill, R.C. The Tourism System: An Introductory Text / R.C. Mill, A.M. Morrison. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1985. – 457 p. Crompton, J.L. Motivations for Pleasure Vacation / J.L. Crompton // Annals of Tourism Research. – 1979. – Vol. 6, No. 4. – P. 408-424. Maslow, A.H. A Theory of Human Motivation / A.H. Maslow // Psychological Review. – 1943. – Vol. 50, No. 4. – P. 370-396. Kolb, D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning / D.A. Kolb. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1984. – 256 p. Mezirow, J. Transformative Dimensions of Adult Learning / J. Mezirow. – San Francisco: Jossey-Bass, 1991. – 247 p. Hofstede, G. Culture's Consequences: International Differences / G. Hofstede. – Beverly Hills: SAGE Publications, 1980. – 475 p.

⁴ Smith, M. Health, Medical and Wellness Tourism / M. Smith, L. Puczko. – London: Routledge, 2014. – 342 p. Ritchie, J. Qualitative Research Practice / J. Ritchie, J. Lewis. – London: SAGE Publications, 2005. – 336 p. Bywater, M. The Market for Cultural Tourism in Europe / M. Bywater. – London: Travel & Tourism Analyst, 1993. – 178 p. Blackwell, R. Motivations for Religious Tourism, Pilgrimage, Festivals / R. Blackwell. – Wallingford: CABI, 2009. – 234 p. Minnaert, L. Tourism and Social Policy / L. Minnaert, R. Maitland, G. Miller. – Bristol: Channel View Publications, 2009. – 189 p. Bolton, R.N. Decoding Generation Z in Tourism / R.N. Bolton, D. Stanford. – New York: Springer, 2019. – 267 p. Nash, D. Tourism and Intercultural Communication / D. Nash, V. Martin. – Bristol: Channel View Publications, 2011. – 198 p. Bianchi, R.V. Tourism and Citizenship: Rights, Freedoms / R.V. Bianchi, M. Stephenson. – London: Routledge, 2014. – 289 p. Hannam, K. Backpacker Tourism: Concepts and Profiles / K. Hannam, I. Ateljevic. – Bristol: Channel View Publications, 2008. – 245 p. Fujikura, K. Student Tourism in Japan: Cultural Perspectives / K. Fujikura. – Tokyo: Japan Travel Bureau Foundation, 2015. – 156 p. Shaw, G. Critical Issues in Tourism: A Geographical Perspective / G. Shaw, A. Williams. – Oxford: Blackwell Publishers, 2002. – 378 p.

⁵ Navro'z-Zoda B.N. umumiy tahriri ostida. Turistik hudud raqobatbardoshligi // monografiya – Buxoro, 2017. 150 b.; Xamidov O.X. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarishni takomillashtirish: muammo va yechimlar // Monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2016. 203 b.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма // – Т.: Гос. Науч. Изд-во “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. 386 b.; Yavmutov D.Sh., Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara. XVII International scientific survey of problems of economics, finance and management. Boston, USA. May 24-25, 2020. – R. 15-21; Muxammedov M.M. va boshqalar. Xizmat ko'rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asoslari // - S.: Zarafshon 2007. 299 b.; Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом // Сервис, 2013. - №1. С.4-9; Ibragimov N.S., Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // [Matn] : monografiya. - Buxoro: Durdona nashriyoti 2020. - 204 b.; Tuxliev I.S., Qudratov G' .H., Pardaev M.Q. Turizmni rejalashtirish // – Т. «Iqtisod-moliya». 2010. 263 b.; Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма // -док. дисс.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan umumiy turizm rivojlanishi, an'anaviy turizm turlari, mintaqaviy iqtisodiyotning makroiqtisodiy jihatlari, raqamli texnologiyalarning ayrim sektorlardagi qo'llanilishi kabi masalalarga qaratilgan bo'lsa-da, talabalar turizmi va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini chuqur tahlil qilish yo'nalishida yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan. Shuningdek, Markaziy Osiyo sharoitida mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirilishida talabalar turizmini rivojlantirish masalalari, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish, bu jarayonni takomillashtirish, samaradorligini oshirish masalalari deyarli tadqiq etilmagan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida mintaqaviy hamkorlik, talabalar almashinuvi dasturlari, akademik turizm va yoshlar sayohatini rivojlantirish bo'yicha kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilmagan.

Shunga binoan talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari, Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu sohaning imkoniyatlari va istiqbollari, mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya masalalari bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiya va takliflar ishlab chiqish zaruriyati va amaliy ahamiyati ushbu tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohasini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi – Markaziy Osiyo misolida mintaqalarda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalar turizmining nazariy asoslarini tadqiq qilish, uning mohiyatini ochib berish hamda ushbu sohaga oid ilmiy qarashlar va ularning tarixiy evolyutsiyasini o'rganish;

talabalar turizmi integratsiyasining nazariy-metodologik asoslarini o'rganish va ilmiy jihatdan asoslash;

автореф., 2011. 38 с.; Abdullayev A.J.// Diniy turizm va diniy meros: turizm rivojlanish omili vol. 5 no. 1 (2025): boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali; Qodirov A.A. Hududlarda ekologik turizm salohiyatini barqaror rivojlantirish mexanizmining metodologik uslubiy asoslarini takomillashtirish. diss. avtoref. – Samarqand, 2024. –68 b.; Khamroev Khalim. The citadel ark of Bukhara as the most important tourist destination of the city/Academic Journal of Digital Economics and Stability Volume 5, 2021. 74-82.; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - S.: SamISI, 2017. 265 b.; Safarov B.Sh., Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // – T.: Fan va texnologiya, 2016, 184 b.; Xidirova G.R. Ichki turizm xizmatlarini shakllanishida talab va taklif o'rtasidagi mutanosiblikni baholash. // "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2021-yil 6-son. - 250-263 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2019. 78 b.; Mirzaev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent, 2021. –68 b.; Matyakubov U.R., Orolbo'yi mintaqasida turizmi strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // Doctor of science dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand. 2022. 78 b.; Xalilov S.Sh., Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish // Doktorlik dissertatsiyasi. TDIU, 2024-y. 212 b.; Maxmudova N. U. O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirishning samarali yo'nalishlari: monografiya. – Toshkent: Kamolot nashriyoti, 2025.

xorijiy davlatlarning talabalar turizmini rivojlantirish borasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish va ulardan mintaqa sharoitida foydalanish yo'nalishlarini aniqlashtirish;

zamonaviy sharoitda talabalar turizmining Markaziy Osiyo mintaqalari iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyatini ochib berish;

talabalar turizmiga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy omillarni so'rovnoma orqali aniqlash;

Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yechimlar taklif etish;

Markaziy Osiyo davlatlarida talabalar turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

Markaziy Osiyoda talabalar turizmi mobilligini baholash uchun integral metodologiya (TTMI indeksi) ni yaratish bo'yicha muallif yondashuvini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash;

Markaziy Osiyo davlatlarida mintaqaviy hamkorlik asosida talabalar turizmini rivojlantirishning istiqbollarini belgilash va prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi talabalar turizmi xizmatlarini ko'rsatuvchi davlat va nodavlat xo'jalik yurituvchi subyektlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar turizmini rivojlantirish jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tizimli va kompleks yondashuv, funksional yondashuv, tahlil va sintez, monografik tahlil, ilmiy abstraksiyalash, statistik ma'lumotlarni guruhlash, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, abstrakt-mantiqiy, so'rovnoma o'tkazish, dastlabki ma'lumotlarni yig'ish, tahlillarni STATA 15.0 dasturi vositasida ekonometrik modellashtirish, Correlation, Regression vositasida natijalarning ilmiyligi va interpretatsiyasini tekshirish kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Talabalar turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'limning raqamli, inklyuziv, barqaror hamda raqobatbardosh rivojlanish xususiyatlariga asoslangan holda akademik mobillik, madaniy singdirilish, shaxsiy rivojlanish hamda tajriba orttirish komponentlari asosida ko'p darajali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizim sifatida takomillashtirilgan;

tizimli yondashuvga ko'ra Markaziy Osiyoda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini uch darajali (makro, mezo, mikro) boshqaruv tuzilmasiga asoslangan raqamli platformalar orqali multiplikativ iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi dalillangan;

talabalar mobilligini baholashda siyosiy-institutsional ochiqlik, iqtisodiy mavqelik, ijtimoiy-madaniy integratsiya, texnologik infratuzilma, huquqiy muhit besh subindeksi bo'yicha “integral baholash tizimi va shkalasiga asoslangan “21 ko'rsatkichli TTMI (Talabalar turizmi mobillik indeksi)” monitoring qilish mualliflik usuli taklif etilgan;

talabalar turizmiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash orqali Markaziy

Osiyo davlatlariga keladigan xorijiy talabalar sonining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo davlatlarida talabalar turizmini rivojlantirish uchun tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar kompleksi tizimli integratsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mexanizmlar mintaqaviy hamkorlik tizimini shakllantirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash instrumentlarini joriy etish, viza rejimlarini liberallashtirish, transport infratuzilmasini takomillashtirish va yagona ma'lumotlar bazasini yaratish bosqichlarini takomillashtirilga qaratilgan;

mintaqalararo "Ta'lim", "Akademik mobillik", "Madaniy-bilim", "Ilmiy-tadqiqot", "Yoshlar integratsiya" kabi yo'nalishlarni kiritish orqali "Markaziy Osiyo ta'lim korridori" nomli talabalar turizm marshruti loyihasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqotda ilgari surilgan 8 ta ilmiy gipotezadan 7 tasi empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bo'lib, moliyaviy mustaqillik, infratuzilma sifati, xizmatlar narxi, universitet dasturlarida ishtirok, raqamli texnologiyalar, transport qulayligi va motivatsion omillar kabi ko'rsatkichlarning talabalar turizmi rivojlanishiga statistik jihatdan ahamiyatli ta'siri aniqlangan hamda ushbu natijalar asosida Markaziy Osiyo davlatlarida talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan;

talabalar turizmining boshqa turizm yo'nalishlari (madaniy, ekologik, biznes, tibbiy) bilan qiyosiy tahlili asosida 10 ta parametr bo'yicha baholangan bo'lib, natijada talabalar turizmi 8,85 ball bilan eng yuqori strategik ustunlikka ega ekanligi dalillangan;

Markaziy Osiyo davlatlari miqyosida talabalar turizmini muvofiqlashtirish maqsadida "Central Asian Student Pass" yagona raqamli identifikatsiya tizimi konsepsiyasi va uni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari milliy statistika idoralarining (O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi, Qozog'iston Respublikasi Milliy iqtisod vazirligi Statistika qo'mitasi va boshqalar) hamda mintaqaviy ta'lim muassasalari va turizm tashkilotlarining hisobot ma'lumotlaridan olingani, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda to'liq aprobasiyadan o'tganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining Markaziy Osiyo mamlakatlari ta'lim va turizm sohasi amaliyotiga joriy etilganligi, ularning tegishli davlat organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid nazariy-metodologik asoslarni ishlab chiqish va mintaqaviy turizm iqtisodiyoti nazariyasini boyitish bilan izohlanadi. Tadqiqotda talabalar turizmi tiziminining nazariy mazmun-mohiyati chuqurlashtirilgan, uning an'anaviy turizm turlaridan farqlovchi xususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan va Markaziy Osiyo mintaqasi sharoitida talabalar turizmini rivojlantirishning o'ziga xos qonuniyatlari aniqlangan. Shuningdek, tadqiqot natijasida talabalar turizmining boshqa turizm turlari bilan integratsiyalashuv

mexanizmlari nazariy jihatdan konseptualizatsiya qilingan, mintaqaviy ta'lim-turizm klasterlarini shakllantirish tamoyillari ishlab chiqilgan va talabalar turizmini baholashning yangi metodologik yondashuvlari yaratilgan. Bu ilmiy natijalar turizm iqtisodiyoti, mintaqaviy rivojlanish nazariyasi va ta'lim turizmini tadqiq etish sohasidagi keyingi fundamental va amaliy tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar turizmini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish, sohaning huquqiy va institutsional asoslarini takomillashtirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotdagi salmog'ini oshirish maqsadida qabul qilinadigan davlat dasturlari, prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda qo'llash mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqalarda ta'lim-turizm infratuzilmasini rivojlantirish kontseptsiyasini yaratish, talabalar turizmini qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish, xalqaro ta'lim hamkorligi dasturlarini kengaytirish va raqamli marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari mintaqaviy turizm tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari, turizm operatorlari va davlat boshqaruvi organlarining talabalar turizmini rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda bevosita qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqalarda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Talabalar turizmi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni ta'limning raqamli, inklyuziv, barqaror hamda raqobatbardosh rivojlanish xususiyatlariga asoslangan holda akademik mobillik, madaniy singdirilish, shaxsiy rivojlanish hamda tajriba orttirish komponentlari asosida ko'p darajali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizim sifatida takomillashtirish bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabr 543-son “2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 15-oktabrdagi 03-10-17-10691-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi natijasida talabalar turizmi sohasida xizmatlar sifati va diversifikatsiyasi darajasi oshirilgan;

tizimli yondashuvga ko'ra Markaziy Osiyoda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini uch darajali (makro, mezo, mikro) boshqaruv tuzilmasiga asoslangan raqamli platformalar orqali multiplikativ iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi bo'yicha taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-sentabrdagi PQ-269-son “Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida belgilangan topshiriqlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 15-oktabrdagi 03-10-17-10691-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida

talabalar turizmini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish va raqamli transformatsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoni yaratilgan;

talabalar mobilligini baholashda siyosiy-institutsional ochiqlik, iqtisodiy mavqelik, ijtimoiy-madaniy integratsiya, texnologik infratuzilma, huquqiy muhit besh subindeksi bo'yicha "integral baholash tizimi va shkalasiga asoslangan "21 ko'rsatkichli TTMI (Talabalar turizmi mobillik indeksi)" monitoring qilish mualliflik usuli taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-sonli farmonining "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish bo'yicha "YO'L XARITASI"" 6-ilovasida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 15-oktabrdagi 03-10-17-10691-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar mobilligini kompleks baholash va monitoring qilish imkoniyati yaratilgan;

talabalar turizmiga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholash orqali Markaziy Osiyo davlatlariga keladigan xorijiy talabalar sonining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-sentabrdagi PQ-269-son "Turizm sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan topshiriqlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasining 2025-yil 15-oktabrdagi 03-10-17-10691-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida talabalar turizmi rivojlanishini strategik rejalashtirish va investitsiya loyihalarini asoslash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertasiyaning hajmi 149 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot muammosini o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda ularni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “**Talabalar turizmini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlanib, unda talabalar turizmi konsepsiyasining nazariy asoslari, integratsiya mexanizmlari va xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 2024-yilda global ta‘lim turizmi bozori 459,76 milliard AQSh dollariga yetgan bo‘lib, 2033-yilga kelib 974,73 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar talabalar turizmining dunyo iqtisodiyotidagi muhim o‘rni va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini




tasdiqlaydi.

1-rasm. Talabalar turizmining tarixiy rivojlanish bosqichlari⁶

Talabalar turizmi konsepsiyasining nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida ushbu hodisaning murakkab va ko‘p qirrali xarakteri aniqlandi. Tarixiy jihatdan talabalar turizmi o‘rta asrlardagi universitetlararo ilmiy safarlardan boshlanib, XVII-XIX asrlardagi Grand Tour an'anasi, XX asrning ikkinchi yarmidagi xalqaro ta‘lim dasturlari va zamonaviy Erasmus kabi almashinuv dasturlari orqali rivojlanib, bugungi kunda yiliga 8 million nafar talabani qamrab oluvchi global hodisaga aylanganini 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi qadar olimlar “talabalar turizmi” tushunchasini turlicha talqin qilib kelishgan - akademik turizm ta‘lim maqsadidagi professional sayohatlarni, ta‘lim turizmi keng qamrovli o‘quv faoliyatini, yoshlar turizmi esa 14-29 yoshdagi barcha sayohatlarni o‘z ichiga oladi. Eng muhimi, “talabalar turizmi” bu uch yo‘nalishning kesishish nuqtasida joylashib, o‘ziga xos segment sifatida ta‘lim, o‘quv amaliyoti, ilmiy tadbirlar, madaniy almashinuv dasturlari va boshqa faoliyatlarni birlashtiradi. Har bir yondashuvning o‘z cheklovlari mavjud bo‘lib, talabalar turizmining haqiqiy mohiyatini to‘liq qamrab ololmaydi, shuning uchun keng qamrovli yondashuv zarur ekanligi ko‘rsatilgan. 2-rasmda bu to‘rt tushunchaning markazida talabalar turizmi joylashuvini, qolgan barcha uch yo‘nalishning elementlarini birlashtirishini ko‘rsatib, shuningdek, talabalar turizmining murakkab tabiati va uni bir tomonlama yondashuvlar bilan to‘liq tushuntirib bo‘lmazligi yaqqol namoyish etilgan.

⁶ Xorijiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi.




2-rasm. “Talabalar turizmi” terminologik qiyosiy tavsifi ⁷

Talabalar turizmi integratsiyasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish natijasida bir qator asosiy nazariyalar o'rganildi. Leiper turizm tizimi modeli jo'natuvchi hududlar, tranzit zonalar va qabul qiluvchi destinatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib berdi.

Mill-Morrison modeli bozor, sayohat jarayoni, destinatsiya va marketing tizimlarining o'zaro ta'sirini ko'rsatdi. Push-Pull motivatsion nazariyasi ta'lim ehtiyoji, madaniyatlararo muloqot ko'nikmasini rivojlantirish, shaxsiy o'sish istagi kabi ichki omillar bilan ta'lim muassasalarining shon-shuhrati, madaniy merosning boyligi kabi tashqi omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirdi.

Kolb tajribaviy o'rganish modeli talabalar xorijiy safarlari davomida qanday ta'lim olishini tushuntiruvchi to'rt bosqichli jarayon – bevosita tajriba, tahliliy mulohaza, nazariy umumlashtirish va amaliy sinov orqali o'rganish mexanizmini taqdim etdi. Hofstede madaniyat mezonlari hokimiyat masofasi, individuallik va jamoaviylik, gender rollari, noaniqlikdan qochish va vaqtga munosabat kabi besh o'lcham orqali madaniyatlararo farqlarni tushunish imkonini berdi. Mezirou transformativ ta'lim nazariyasi talabalarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va o'zlik anglashi o'zgarishlarini tushuntirdi. Bu nazariyalar birgalikda talabalar turizmining murakkab tabiatini tushunish va samarali dasturlar ishlab chiqish uchun mustahkam metodologik asos yaratdi.

⁷Xorijiy adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi muallif ishlanmasi.



3-rasm. Talaba turizmi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tizimining umumiy strukturaviy modeli⁸

Talabalar turizmi ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida murakkab strukturaviy tuzilmaga ega bo'lib, uning markazida talaba-turist turgan holda to'rtta asosiy subsistemaning o'zaro integratsiyasi orqali namoyon bo'ladi. Ta'lim tizimi, turizm infratuzilmasi, raqamli, inklyuziv, ijtimoiy muhit va iqtisodiy omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda faoliyat yuritib, universitetlar va almashinuv dasturlaridan tortib transport-mehmonxona xizmatlari, oilaviy-tengdoshlik munosabatlari hamda moliyaviy manbalar va grantlargacha bo'lgan keng doiradagi komponentlarni qamrab oladi. Ushbu subsistemalarning muvofiqlashtirilgan hamkorligi natijasida talabalar turizmi nafaqat shaxsiy va kasbiy rivojlanish vositasi, balki global ta'lim makonini shakllantiruvchi, madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi va mintaqaviy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi strategik mexanizm sifatida baholanadi (3-rasm).

Xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijasida Yevropa va Amerika qit'asidagi ilg'or amaliyotlar batafsil tahlil qilindi. Erasmus+ dasturi 2021-2027 yillarga 30 milliard yevro byudjet bilan 10 milliondan ortiq ishtirokchini qamrab olishni rejalashtirgan bo'lib, bu dastur Yevropa oliy ta'lim hududida talabalar harakatchanligini misli ko'rilmagan darajaga olib chiqqan. ECTS kredit tizimi 98% Yevropa universitetlarida qo'llanilmoqda va yiliga 4.5 million kredit transferini ta'minlamoqda. Shuningdek, Germaniyada DAAD tashkiloti 2024-2025 o'quv yilida 405 000 xalqaro talabani qabul qilishni rejalashtirgan bo'lib, Deutschlandstipendium dasturi orqali 28,000 dan ortiq talabaga oyiga 300 yevro stipendiya taqdim etadi. Fransiyaning Campus France tashkiloti 2023-2024 o'quv yilida 430 466 xalqaro talabaga xizmat ko'rsatdi va "Choose France" strategiyasi doirasida 2027-yilga kelib

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif ishlanmasi.

500 000 nafar talaba jalb qilish strategiyasini ishlab chiqishi singari tajribalar keng qamrovda o‘rganib chiqildi.

Tadqiqot natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi uchun talabalar turizmini rivojlantirishning keng qamrovli mexanizmlari ishlab chiqildi. Tashkiliy-institutsional mexanizmlar doirasida milliy agentlik yaratish, moliyaviy mexanizmlarda ko‘p manbali moliyalashtirish modeli, akademik mexanizmlarda qo‘shma diplom dasturlari, viza-migratsiya mexanizmlarida soddalashtirish, infratuzilma mexanizmlarida zamonaviy kampuslar qurish, marketing mexanizmlarida milliy brend yaratish va mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarida integratsion loyihalar amalga oshirish tavsiya qilindi. Bloktizim diplomlar tizimini joriy etish, sun‘iy intellektga asoslangan moslashtiruvchi platformalarini ishlab chiqish va smart kampus texnologiyalarini qo‘llash kabi innovatsion yechimlar taklif etildi.

Umuman olganda, birinchi bobda talabalar turizmining nazariy asoslari ochib berilgan, xorij mamlakatlari tajribasi tahlil qilingan va mintaqa sharoitida qo‘llash imkoniyatlari aniqlangan. Keltirilgan ma‘lumotlar va tahlillar mintaqani 2030-yilga kelib jahonda talabalar turizmi jihatidan ommalashayotgan destinatsiya sifatida shakllantirish, yiliga 200 000 nafar xalqaro talabani jalb qilish va 2 milliard dollarlik iqtisodiy ta‘sir yaratish imkoniyatini ko‘rsatdi. Bu maqsadlarga erishish uchun xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirib, bosqichma-bosqich joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish, institutsional salohiyatni oshirish va mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish zarur bo‘ladi.

Dissertatsiyaning **“Markaziy Osiyoda talabalar turizmini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi mintaqalarda talabalar turizmining rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro ta‘lim bozorida murakkab vaziyatga duch kelayotganligini aniqladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mintaqada talabalar harakatchanligi bo‘yicha jiddiy nomutanosiblik mavjud bo‘lib, 2023-2024 o‘quv yilida Markaziy Osiyo davlatlaridan jami 320 000 nafar talaba xorijda tahsil olgan, mintaqaga esa atigi 113 000 nafar xorijiy talaba jalb qilingan. Bu ko‘rsatkichlar mintaqaning sof migratsiya balansini manfiy 207 000 nafarga yetkazgan va ta‘lim eksporti sohasida keskin defitsit mavjudligini ko‘rsatgan.

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlari talabalar harakatchanligi umumiy ko‘rsatkichlari (2023-2024)⁹

Davlat	Chiquvchi talabalar	Kiruvchi talabalar	Balans koeffitsienti	Mobilik indeksi (%) ¹⁰	Sof balans
Qozog‘iston	90 333	31 500	0,35	14,5%	-58 833
O‘zbekiston	150 000	12 500	0,08	10,6%	-137 500
Qirg‘iziston	13 757	70 524	5,12	5,9%	+56 767
Tojikiston	30 000	<1 000	0,02	6,0%	-29 000
Turkmaniston	70 000–80 000	<100	0,00	70–80%	-75 000

⁹ <https://stat.uz>, <https://stat.gov.kz>, <https://www.stat.gov.kg>, <https://www.stat.tj>, <https://www.stat.gov.tn> ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁰ (Xorijga ketgan + Xorijdan kelgan talabalar) / Umumiy talabalar soni × 100 asosida hisoblangan.

Jami:	320 000	113 000	0,35	—	-207 000
--------------	----------------	----------------	-------------	---	-----------------

Mintaqa davlatlari o'rtasida talabalar mobilligi ko'rsatkichlari sezilarli farq mavjudligini ko'rsatadi. Qozog'iston mintaqada eng ko'p xorijiy talaba qabul qiluvchi davlat sifatida 31 500 nafar talabani jalb qilgan, ammo shu bilan birga 90333 nafar o'z fuqarosini xorijga ta'lim olish uchun yuborgan. Bu mamlakatning balans koeffitsientini 0,35 ga yetkazgan, ya'ni har bir kiruvchi talabaga qariyb uchta chiquvchi talaba to'g'ri keladi. O'zbekiston eng keskin disbalansni namoyish etib, 150 000 nafar talabani xorijga yuborgan va atigi 10 527 nafar xorijiy talabani qabul qilgan. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning balans koeffitsientini 0,07 ga tushirgan, ya'ni har bir kiruvchi talabaga 14 nafar chiquvchi talaba to'g'ri keladi. Yagona ijobiy balansga ega davlat Qirg'iziston bo'lib, 70 524 nafar xorijiy talaba qabul qilgan va 13757 nafar o'z fuqarosini xorijga yuborgan, bu esa 5,12 balans koeffitsientini bergan (1-jadval).

Talabalar oqimining geografik tahlili Rossiyaning asosiy markaz ekanini ko'rsatdi. Qozog'istonlik talabalarning 74%i, Turkmanistonliklarning katta qismi va Tojikistonliklarning 70-87%i aynan Rossiyada tahsil olmoqda. O'zbekiston talabalarining geografiyasi eng xilma-xil shakllangan bo'lib, Rossiya bilan birga Qozog'iston, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, AQSh va Yevropa davlatlarini qamrab oladi. Turkiya mintaqaning ikkinchi muhim ta'lim markazi sifatida, ayniqsa O'zbekiston va Turkmaniston talabalarini uchun jozibador hisoblanadi. Kiruvchi talabalar bo'yicha Hindiston barcha mintaqada davlatlari uchun muhim manba bo'lib, Qozog'istonga 4 453, O'zbekistonga 5 733, Qirg'izistonga 14 456 nafar hind talabasi kelgan.

Ta'lim sifati va xalqaro integratsiya darajasi talabalar turizmining muhim omillari hisoblanadi. Markaziy Osiyo mamlakatlari bu borada turli darajada rivojlanganlikni namoyish etmoqda. Tadqiqot natijalarida Qozog'iston xalqaro akkreditatsiya bo'yicha 85% ko'rsatkich bilan mintaqada yetakchi ekanligi aniqlandi – mamlakat 2010-yildan Bolonya jarayoni a'zosi sifatida ta'lim tizimini xalqaro standartlarga muvaffaqiyatli moslashtirgan va 14 ta universiteti QS reytingiga kirgan. O'zbekiston 40% akkreditatsiya darajasi bilan ikkinchi o'rinda turishi, 9 ta universiteti xalqaro reytingda qayd etilganligi va ingliz tilidagi dasturlar ulushi 45% ni tashkil etishi o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Ta'lim sifati va xalqaro integratsiya ko'rsatkichlari¹¹

Mamlakat	Xalqaro akkreditatsiya (%)	QS reytingdagi universitetlar	Ingliz tilida dasturlar (%)	Ikki diplomli dasturlar
Qozog'iston	85%	14 universitet	60%	40
O'zbekiston	40%	9 universitet	45%	15
Qirg'iziston	45%	2 universitet	75%	25
Tojikiston	25%	0	35%	10
Turkmaniston	15%	0	20%	5

¹¹<https://enic-kazakhstan.edu.kz/>, <https://stat.edu.uz/>, <https://edugate.edu.gov.kg/opendata>, <https://maorif.tj>, <https://education.gov.tm> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Gravitatsion model asosida ikki mamlakat o'rtasidagi potensial talabalar oqimini bashorat qilish uchun ishlatildi. O'zbekiston-Qozog'iston misolida:

$$F(Uzb - Kaz) = 0,85 \times \frac{(450,000 \times 650,000)}{2,203^2} = 51\,247 \text{ talaba}$$

Bu nazariy potensial 51 247 talabani tashkil etadi. Haqiqiy oqim 12 639 talaba, ya'ni potensialning atigi 24,7% dan foydalanilganligi aniqlandi. Bu ikki mamlakat o'rtasida talabalar almashinuvini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Potensial va haqiqiy talabalar oqimi taqqoslash¹²

Yo'nalish	Nazariy potensial	Haqiqiy oqim	Foydalanish darajasi (%)
O'zbekiston→Qozog'iston	51 247	12 639	24,7
O'zbekiston→Qirg'iziston	38 456	24 895	64,7
O'zbekiston→Tojikiston	18 234	4 125	22,6
Qozog'iston→Qirg'iziston	42 789	18 450	43,1
Qirg'iziston→Tojikiston	12 567	3 890	30,9

O'zbekiston-Qirg'iziston yo'nalishi potensialdan eng ko'p foydalanishi aniqlanib (64,7%), bu asosan tibbiyot ta'limi sohasidagi hamkorlik va geografik yaqinlik bilan bog'liq hisoblanadi, shu sababli boshqa yo'nalishlarda potensialning katta qismi foydalanilmagan holda qolmoqda.

Empirik tadqiqot natijalari talabalar turizmining haqiqiy holatini ochib berdi. 530 nafar respondent ishtirok etgan so'rovnoma natijalariga ko'ra¹³, talabalarining 51,2%i moliyaviy jihatdan to'liq qaram, ota-ona yoki turmush o'rtog'iga bog'liq. Faqat 6,1 % talabalar to'liq moliyaviy mustaqillikka ega. Talabalarining 86 %i daromadlarining 20%dan kamini sayohatga ajratadi, 60%i esa atigi 5-10%ini sarflaydi. Bu moliyaviy cheklovlarning jiddiyligini va talabalar turizmini rivojlantirish uchun maxsus moliyaviy qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Sayohat xatti-harakatlari tahlili talabalarining 45%i yilda atigi 1-2 marta sayohat qilishini, qisqa muddatli sayohatlar (1-3 kun) eng mashhur format ekanligini ko'rsatdi. Talabalarining 52,4%i mustaqil ravishda sayohat rejalashtiradi, 20%i turpaket xarid qiladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tahlili Instagram (78,5%) va Telegram (76,2%) ning eng mashhur platformalar ekanligini, YouTube (68%) ning uchinchi o'rinda turganligini ko'rsatdi. Universitet dasturlarida ishtirok darajasi past – 48,3 % respondentlar hech qachon bunday dasturlarda qatnashmagan, 35,8%i 1-2 marta qatnashgan, faqat 15,9%i ko'p marta ishtirok etgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmining rivojlanish omillarini miqdoriy baholash maqsadida STATA 15.0 dasturida OLS regressiya va Structural Equation Model (SEM) tahlillari amalga oshirilgan. 530 nafar respondent ishtirokida to'plangan so'rovnoma ma'lumotlari asosida bog'liq o'zgaruvchi sifatida talabalar turizmidan umumiy qoniqish darajasi (Y, Likert 1-6 shkalasi) tanlangan, 20 ta mustaqil o'zgaruvchi esa demografik, iqtisodiy, institutsional va motivatsion ko'rsatkichlarni qamrab olgan. Modelning umumiy sifat ko'rsatkichlari yuqori

¹²<https://enic-kazakhstan.edu.kz/>, <https://stat.edu.uz/>, <https://edugate.edu.gov.kg/opendata>, <https://maorif.tj>, <https://education.gov.tm> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


¹³So'rovnoma havolasi: <https://forms.gle/YbJCi1xXHJ36vBkU8>

darajada bo‘lib, determinatsiya koeffitsienti $R^2=0.78$ tanlangan omillar qoniqish darajasidagi o‘zgarishning 78%ini tushuntirishini anglatadi, F-test natijasi $F=183,4$ ($p<0.001$) esa modelning statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ekanligini tasdiqlagan. Barcha o‘zgaruvchilar uchun VIF qiymatlari 10 dan past bo‘lib, multikollinearlik muammosi mavjud emasligi isbotlangan.

Olingan natijalar asosida talabalar turizmidan qoniqish darajasini prognozlash uchun quyidagi ekonometrik tenglama shakllangan:

$$Y = 0,847 + 0,412 \times X^4 + 0,523 \times X^9 + 0,387 \times X^{10} + 0,298 \times X^{11} + 0,356 \times X^{12} + 0,187 \times X^{13} + 0,234 \times X^{14} + 0,312 \times X^{17} + 0,278 \times X_{18}$$

Xavfsizlik bahosi (X_9) eng yuqori standartlashtirilgan koeffitsientga ega bo‘lib ($\beta=0,523$, $p<0,001$), xavfsizlikni 1 ball darajasida baholagan talabalar yiliga o‘rtacha 1.89 marta, 5 ball darajasida baholaganlar esa 6,16 marta sayohat qilgani aniqlangan ($\rho=0,788$). Moliyaviy mustaqillik darajasi ($\beta=0,412$) ikkinchi o‘rinda turgan bo‘lib, to‘liq moliyaviy mustaqillikka ega talabalar o‘rtasida qoniqish darajasi 4,98 ballni, qaram talabalar o‘rtasida esa 2,61 ballni tashkil etgan. Universitet dasturlarida ishtirok ($\beta=0,356$) bo‘yicha ANOVA tahlili ($F=181,4$, $p<0.001$) ko‘p marta ishtirok etganlar (5,16 ball) va hech qachon ishtirok etmaganlar (3,22 ball) o‘rtasida 1,94 ball farq mavjudligini ko‘rsatgan.



4-rasm. Talabalar turizmidan qoniqish darajasi va moliyaviy mustaqillik o‘rtasidagi bog‘liqlik¹⁴

Yuqoridagi rasmda ko‘rsatilganidek, moliyaviy mustaqillik darajasining oshishi bilan talabalar turizmidan qoniqish darajasi ham mutanosib ravishda ortmoqda.

4-jadval

SEM tahlili natijalari: latent o‘zgaruvchilarning standartlashtirilgan koeffitsientlari¹⁵

Yo‘nalish	Std. koeffitsient	Std. Error	z-qiyamat	p
Moliyaviy → Qoniqish	0.38	0.056	6.79	<0.001
Infratuzilma → Qoniqish	0.47	0.048	9.79	<0.001


¹⁴ Muallif tadqiqotlari natijasi

¹⁵ Muallif tadqiqotlari natijasi

Yo'nalish	Std. koeffitsient	Std. Error	z-qiyamat	p
Institutsional → Qoniqish	0,38	0,056	6,79	<0.001
Motivatsion → Qoniqish	0,47	0,048	9,79	<0.001
Moliyaviy → Sayohat chastotasi	0,29	0,062	4,68	<0.001
Infratuzilma → Sayohat chastotasi	0,34	0,054	6,30	<0.001
Institutsional → Moliyaviy	0,42	0,058	7,24	0.001
Motivatsion → Institutsional	0,31	0,061	5,08	<0.001

Model fit: CFI=0.94, TLI=0.92, RMSEA=0.048, SRMR=0.052

SEM tahlili natijalariga ko'ra, infratuzilma omillari qoniqishga eng kuchli to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatgan ($\beta=0,47$, $p<0,001$), moliyaviy omillar ($\beta=0,38$), motivatsion omillar ($\beta=0,34$) va institutsional omillar ($\beta=0,29$) ham statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega bo'lgan. Model mos kelish ko'rsatkichlari (CFI=0,94, TLI=0,92, RMSEA=0,048) modelning ma'lumotlarga yaxshi mos kelishini tasdiqlagan. Qo'yilgan 8 ta gipotezadan 7 tasi (H_1-H_7) empirik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan, faqat yosh ta'siri bilan bog'liq H_8 gipotezasi statistik jihatdan ahamiyatsiz ($p=0,201$) bo'lgani uchun rad etilgan (4-jadval).



5-rasm. Markaziy Osiyoda talabalar turizmiga ta'sir etuvchi omillarning strukturaviy tenglamalar modeli (SEM)¹⁶

Yuqoridagi 5-rasmdagi modelda to'rtta ekzogen (tashqi) latent o'zgaruvchi - moliyaviy omillar, infratuzilma, institutsional omillar va motivatsion omillar hamda ikkita endogen (ichki) latent o'zgaruvchi - qoniqish darajasi va sayohat chastotasi aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, infratuzilma omili qoniqish darajasiga eng kuchli ta'sir ko'rsatib, undan keyin moliyaviy omillar, motivatsion omillar va institutsional omillar joylashgan. Shuningdek, qoniqish darajasi sayohat chastotasiga bevosita ijobiy ta'sir etib, infratuzilma va institutsional omillar ham sayohat chastotasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishi aniqlangan, bu esa Markaziy Osiyoda

¹⁶ Savolnoma javoblari natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan


talabalar turizmini rivojlantirishda infratuzilmani takomillashtirish va institutsional hamkorlikni kuchaytirishning strategik ahamiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmi katta salohiyatga ega, negaki, 81% respondentlar kelajakda mintaqaviy dasturlarda ishtirok etishga tayyor va mintaqaning talabalar turizmi salohiyati 4,2 ball bilan baholagan. Biroq, bu imkoniyatlar moliyaviy cheklovlar, institutsional qo‘llab-quvvatlashning zaif ekanligi va infratuzilma muammolari tufayli to‘liq realizatsiya qilinmagan.

Tadqiqotning uchinchi bobi **“Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar turizmini takomillashtirishning yo‘nalishlari va istiqbollari”** deb nomlanib, mazkur bobda Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan kompleks tadqiqot natijalari mintaqaning bu sohadagi ulkan salohiyatini va strategik imkoniyatlarini har tomonlama ochib berdi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, integral baholash metodologiyasi va prognoz parametrlari Markaziy Osiyo davlatlarining global ta‘lim bozorida raqobatbardosh pozitsiya egallash yo‘llarini ilmiy asosladi va amaliy tavsiyalar bilan boyitdi.

Talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi uch bosqichli tuzilma asosida qurilgan bo‘lib, tashkiliy, iqtisodiy va integratsion tarkibiy qismlarning o‘zaro ta‘sirini ta‘minlaydi (6-rasmga qarang). Iqtisodiy modellashtirish natijalari ko‘rsatdiki, talabalar turizmiga sarflangan har bir dollar 2,3-2,7 dollar multiplikativ effekt yaratadi, bu esa boshqa turizm yo‘nalishlariga nisbatan ancha yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi. Panel data regressiya tahlili 2015-2024 yillar ma‘lumotlari asosida o‘tkazilgan bo‘lib, talabalar turizmi 1% o‘sganda, mintaqaviy yalpi ichki mahsulotning 0,12-0,15%ga o‘sishiga olib kelishini tasdiqladi. Bu ko‘rsatkichlar talabalar turizmining nafaqat qisqa muddatli iqtisodiy foyda keltirishi, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanish uchun ham muhim omil ekanligini isbotlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmini rivojlantirishning amaliy mexanizmi sifatida esa “Markaziy Osiyo ta‘lim korridori” loyihasi ishlab chiqildi. Mazkur loyiha mintaqaning besh davlati o‘rtasida talabalar turizmini tizimli rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuvga asoslangan kompleks dastur hisoblanadi. Loyihaning uch bosqichli strategiyasi 6 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, dastlabki ikki yilda ikki tomonlama shartnomalar va pilot dasturlar orqali 34 500 nafar talabani qamrab olishdan boshlanib, keyingi ikki yilda mintaqaviy integratsiya va infratuzilmani rivojlantirish orqali davom etadi, shuningdek, loyihaning oxirgi ikki yilida esa to‘liq miqyosli faoliyat va geografik kengayish natijasida Qozog‘iston-O‘zbekiston va Qirg‘iziston-Tojikiston pilot koridorlari orqali 85 000 nafar talabani qamrab olishga erishishi ko‘zda tutilgan va bu dissertatsiyaning 3.1-rejasida batafsil yoritib berilgan.



6-rasm. Markaziy Osiyoda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi¹⁷

5-jadvaldagi qiyosiy tahlil natijalari talabalar turizmining boshqa turizm

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

yoʻnalishlariga nisbatan sezilarli ustunliklarini yaqqol koʻrsatdi. Oʻrtacha qolish muddati 84-180 kun boʻlib, madaniy turizmdan 8-18 baravar, biznes turizmdan esa 30-60 baravar koʻproq davom etadi, bu esa barqaror daromad oqimini taʼminlaydi. Multiplikativ iqtisodiy taʼsir 2,3-2,7 koeffitsienti bilan boshqa yoʻnalishlarga qaraganda 20-25% yuqori samaradorlikni taʼminlaydi va har bir investitsiya qilingan mablagʻning koʻproq qaytimini kafolatlaydi. Takroriy tashrif ehtimoli 65-70% darajasida boʻlib, barqarorlik jihatidan eng ishonchli yoʻnalish hisoblanadi va uzoq muddatli mijozlar bazasini shakllantiradi.

5-jadval

Turli turizm yoʻnalishlarining raqobat ustunliklari qiyosiy tahlili¹⁸

Ustunlik parametri	Talabalar turizmi	Madaniy turizm	Ekologik turizm	Biznes turizm	Tibbiy turizm
Barqarorlik va uzoq muddatlilik	9,5	6,0	5,5	4,5	7,0
Madaniyatlararo integratsiya	9,0	8,5	6,0	5,0	4,5
Inson kapitali rivojlanishi	10,0	5,5	5,0	6,5	6,0
Multiplikativ iqtisodiy taʼsir	8,5	7,0	6,0	7,5	7,0
Innovatsion texnologiyalar transferi	8,0	4,0	4,5	7,0	6,5
Past mavsumiylik taʼsiri	9,0	4,5	3,0	7,5	8,0
Mintaqaviy brendingga taʼsir	8,5	9,0	7,0	6,0	5,5
Ijtimoiy kapital yaratish	9,5	6,5	6,0	6,5	5,0
Infratuzilma rivojlanishi	8,0	7,5	5,5	8,0	7,5
Investitsiya samaradorligi	8,5	6,5	5,0	7,0	6,0
OʻRTACHA BALL	8,85	6,50	5,35	6,55	6,30
USTUNLIK DARAJASI	Juda yuqori	Oʻrta-yuqori	Oʻrta	Oʻrta-yuqori	Oʻrta-yuqori

PESTEL tahlili asosida Markaziy Osiyoda taʼlim turizmi sektoriga taʼsir etuvchi oltita makromuhit omillari tizimli baholandi va har birining ijobiy hamda salbiy tomonlari aniqlandi. Siyosiy omillar yuqori taʼsir darajasiga ega boʻlib, vizasiz rejim kengayishi – Qozogʻiston 76 mamlakat, Oʻzbekiston 90 mamlakat, xalqaro investitsiyalar – ERASMUS+ 180 million dollar ijobiy taʼsir koʻrsatsa-da, chegara ziddiyatlari va byurokratik jarayonlar salbiy taʼsir qilmoqda. Iqtisodiy omillar ham yuqori taʼsir koʻrsatib, arzon taʼlim narxлари 600-3 000 AQSh dollar yiliga va yashash xarajatlari 150-600 AQSh dollar oyiga afzallik yaratsa-da, yuqori inflyatsiya va moliyaviy cheklovlar muammo boʻlib qolmoqda.

Ijtimoiy omillar oʻrta taʼsir darajasida boʻlib, mehmondoʻstlik anʼanalari va xavfsizlik yuqori baholansa-da, til toʻsiqlari – ingliz tilini faqat 15-20% yoshlar bilishi va madaniy farqlar integratsiyani murakkablashtirmoqda. Texnologik omillar ham oʻrta taʼsiringa ega boʻlib, internet qamrovi 75-89%ga yetgan boʻlsa-da, ijtimoiy tarmoqlarga qoʻyilgan cheklovlar va raqamli boʻlinish mavjudligi rivojlanishga toʻsqinlik qilmoqda. Ekologik omillar hozircha past taʼsir koʻrsatsa-da, iqlim

¹⁸ [Travel & Tourism Economic Impact Research \(EIR\)](#), [Tourism Statistics Database](#) manbalari asosida tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan hisoblangan.

o'zgarishi va Orol dengizi muammosi kelajakda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Huquqiy omillar o'rta ta'sir darajasida bo'lib, Bolonya jarayoni integratsiyasi va xalqaro filiallar ochilishi ijobiy, lekin majburiy ro'yxatdan o'tish va murakkab viza jarayonlari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan Talabalar Turizmi Mobillik Indeksi (TTMI) mintaqaviy holatni hisobga oladigan innovatsion baholash vositasi sifatida taqdim etildi va xalqaro metodologiyalardan farqli ravishda Markaziy Osiyo xususiyatlarini to'liq qamrab oladi. Indeks besh asosiy subindeksdan tashkil topadi: siyosiy-institutsional ochiqlik 25% vaznda, iqtisodiy mavqelik 30% vaznda, ijtimoiy-madaniy integratsiya 20% vaznda, texnologik infratuzilma 15% vaznda va huquqiy muhit 10% vaznda baholanadi (6-jadval).

6-jadval

TTMI indeksi ko'rsatkichlari¹⁹

Subindeks	Vazn	Ko'rsatkich	Manbalar
Siyosiy-institutsional ochiqlik (SI)	25%	K1: Henley Passport Index reytingi (vizasiz davlatlar soni)	Henley Passport Index reytingi
		K2: Siyosiy barqarorlik indeksi	TheGlobalEconomy.com
		K3: Talabalar uchun viza soddaligi	BJTT viza ochiqlik indeksi
		K4: Bolonya jarayoniga a'zligi hamda Erasmus+ dasturidagi ishtirogi	Bologna Process Membership, Erasmus+ Programme Participation
Iqtisodiy mavqelik (II)	30%	K5: Yashash xarajatlari indeksi	Cost of Living Index
		K6: Ta'lim to'lovi narxlarini (davlat universitetlari, o'rta ta'lim)	UNESCO Statistics tuition fees data
		K7: Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM (XQB asosida)	TheGlobalEconomy.com
		K8: Ta'limga davlat xarajatlari (% YaIM)	World Bank Indicators
Ijtimoiy-madaniy integratsiya (MI)	20%	K9: Ingliz tili ko'nikmalari	EF EPI Score
		K10: Xavfsizlik reytingi	Global tinchlik indeksi
		K11: Xorijiy talabalar ulushi	UNESCO inbound mobility rate
		K12: Ijtimoiy taraqqiyot indeksi	AITi Global Social Progress Index
Texnologik infratuzilma (TI)	15%	K13: Sog'liqni saqlash indeksi	Numbeo 2025
		K14: Internet tezligi	Cable.co.uk, Worldwide Broadband Speed League
		K15: Internet erkinligi ko'rsatkichi	Freedom on the Net
		K16: Tarmoq tayyorgarligi indeksi	WEF Network Readiness Index
Huquqiy muhit (HI)	10%	K17: Elektron hukumat rivojlanish indeksi	UN EGDI
		K18: Lissabon konvensiyasi ratifikatsiyasi	Ha/Yo'q (0 yoki 1)
		K19: QS Osiyo ro'yxatiga kiruvchi OTMLar ulushi	QS HESS ranking
		K20: Qonun ustuvorligi indeksi	World Justice Project score
		K21: Akademik erkinlik indeksi	Academic Freedom Index

TTMI hisoblash formulasi quyidagicha belgilangan:

$$TTMI = 0,25 \times SI + 0,30 \times II + 0,20 \times MI + 0,15 \times TI + 0,10 \times HI,$$

bu yerda har bir subindeks o'z ko'rsatkichlarining normalizatsiya qilingan qiymatlari asosida hisoblanadi. TTMI hisoblash metodologiyasi, bosqichlari va

¹⁹ Manbalar asosida muallif ishlanmasi.

interpretatsiya shkalasi ham 3.2-rejada batafsil yoritib berilgan bo‘lib, 8-jadvalda Markaziy Osiyo – 5 ta davlatning har bir indeks bo‘yicha hisoblangan ko‘rsatkichlari hamda oxirgi natijalari taqdim etilgan.

7-jadval

Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha TTMI indeksi natijalari²⁰

Davlat	SI (25%)	II (30%)	MI (20%)	TI (15%)	HI (10%)	Oxirgi natija (ball)
Qozog‘iston	88,64 □	54,76 □	68,92 □	80,90 □	93,59 □	73,87 □□
O‘zbekiston	60,01 □	61,68 □	63,64 □	69,99 □	66,79 □	63,41 □
Qirg‘iziston	41,18 □	74,53 □	68,79 □	64,68 □	73,27 □	63,45 □
Tojikiston	31,57 ●	69,21 □	34,31 ●	19,21 ●	34,47 ●	41,84 □
Turkmaniston	25,00 ●	22,41 ●	3,66 ●	0,00 ●	25,00 ●	16,20 ●

Markaziy Osiyo davlatlari bo‘yicha TTMI indeksi natijalari mintaqadagi muhim farqlarni va rivojlanish darajalarini ko‘rsatdi. Qozog‘iston 73,87 ball bilan birinchi o‘rinda turib, o‘rta mobillik darajasini namoyish etdi va mintaqada yetakchi pozitsiyani egalladi. Qirg‘iziston 63,45 ball va O‘zbekiston 63,41 ball bilan deyarli teng ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, ikkalasi ham o‘rta mobillik kategoriyasida joylashdi va sezilarli rivojlanish salohiyatiga ega (7-rasm). Tojikiston 41,84 ball bilan past mobillik darajasini ko‘rsatdi va jiddiy islohotlar zarurligini namoyon etdi. Turkmaniston esa 16,20 ball bilan juda past mobillik darajasini ko‘rsatdi va mintaqada eng yopiq ta‘lim tizimiga ega davlat sifatida baholandi. Bu natijalar mintaqada talabalar mobilligi bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini va maqsadli islohotlar zarurligini tasdiqladi.

Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmiga ta‘sir etuvchi omillarni baholash maqsadida beshta davlat (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bo‘yicha 2015-2024 yillar davomida panel data tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqotda N=5 mamlakat va T=10 yil bo‘yicha jami 50 ta kuzatuv asosida bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida mamlakatga kelgan xalqaro talabalar soni (Y), mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa inflyatsiya darajasi (X₁), o‘rtacha ta‘lim to‘lovi (X₂), xavfsizlik koeffitsienti (X₃), internet tezligi (X₄) va viza rejimi qulayligi indeksi (X₅) tanlangan. Hausman testi natijalari ($\chi^2=18,45$, p=0.0024) asosida Fixed Effects modeli afzal deb topilgan, F-test (F=12,78, p=0,0001) individual effektlarning statistik ahamiyatligini, Breusch-Pagan LM testi (LM=24,56, p=0,0000) esa panel effektlar mavjudligini tasdiqlagan. Barcha o‘zgaruvchilar uchun VIF qiymatlari 5 dan past bo‘lib (o‘rtacha VIF=1,92), multikollinearlik muammosi mavjud emasligi isbotlangan.

Fixed Effects modeli asosida quyidagi regressiya tenglamasi shakllangan:

$$\ln(Y) = 2,35 - 0,008X^1 + 0,42\ln(X^2) - 0,015X^3 + 0,38\ln(X^4) + 0,52X_5 + \alpha_i.$$


Model determinatsiya koeffitsienti R²=0.847 bo‘lib, tanlangan omillar xalqaro talabalar sonidagi o‘zgarishning 84,7 %ini tushuntirishini anglatadi (F=52,34, p<0,001). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, viza rejimi qulayligi ($\beta_5=0,52$, p<0,001) ta‘lim turizmiga eng kuchli ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, ta‘lim to‘lovining 1 foizga oshishi talabalar sonini 0,42% ga ($\beta_2=0,42$, p=0,001), internet tezligining 1%ga oshishi esa 0,38 %ga oshiradi ($\beta_4=0,38$, p<0,001). Inflyatsiyaning 1% punktga oshishi talabalar

²⁰ Muallif tomonidan hisoblangan.

sonini 0,8% ga kamaytirishi aniqlangan ($\beta_1=-0,008$, $p=0,038$).

Mamlakatlar bo'yicha individual effektlar tahlili Qirg'izistonning eng yuqori salohiyatga ega ekanligini ko'rsatgan ($\alpha=1,62$), bu arzon ta'lim to'lovlari va qulay viza rejimi bilan izohlanadi. Qozog'iston rivojlangan infratuzilma tufayli ikkinchi o'rinda ($\alpha=1,24$), Turkmaniston esa cheklangan ochiqlik sababli eng past ko'rsatkichga ega ($\alpha=-0,95$). Prognoz natijalariga ko'ra, mintaqaga keluvchi xalqaro talabalar soni 2024-yildagi 141 600 nafar ko'rsatkichidan 2030-yilga kelib 332 200 nafarga yetadi, bu 2,03 baravar o'sishni tashkil etadi. O'zbekiston eng yuqori o'sish sur'atini namoyish etib (yillik 20%), 13 500 nafar (2024) dan 41 800 nafarga (2030) yetishi prognoz qilingan. Mintaqaviy yillik o'rtacha o'sish sur'ati 15,2% bo'lib, bu global o'rtacha ko'rsatkichdan (6-8%) sezilarli darajada yuqori(7-rasm).

Tadqiqot natijalari asosida Markaziy Osiyo davlatlari uchun kompleks strategik tavsiyalar ishlab chiqildi va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'llari belgilandi. Mintaqaviy koordinatsiya mexanizmlarini yaratish, "Central Asian Student Pass" yagona raqamli identifikatsiya tizimini joriy etish, 100 million dollar hajmidagi Markaziy Osiyo Talabalar Turizmi Jamg'armasini tashkil etish, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish modellarini diversifikatsiya qilish tavsiya etiladi. Xorijiy OTM filiallarini O'zbekistonda 7 tadan 20 taga, mintaq bo'yicha esa 50 taga yetkazish, bloktizim texnologiyalari, avtomatlashtirilgan shartnomalar va raqamli platformalar orqali boshqaruv xarajatlarini 35-40% ga kamaytirish, universitetlararo konsorsiumlar va qo'shma dasturlar orqali akademik mobillik infratuzilmasini mustahkamlash zarur.



7-rasm. Markaziy Osiyo davlatlarida xalqaro talabalar soni dinamikasi²¹

Umuman olganda, uchinchi bob tadqiqotlari Markaziy Osiyo davlatlarining talabalar turizmi sohasidagi katta salohiyatini ilmiy asosladi va amaliy yo'nalishlarni belgiladi. Ishlab chiqilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, TTMI indeksi va prognoz modellari mintaqaning 2030-yilga kelib global ta'lim bozorida muhim o'rin egallash

²¹ Muallif ishlanmasi

imkoniyatini tasdiqladi. O‘zbekiston uchun tuzilgan prognozlar 35 200 xalqaro talabaga xizmat ko‘rsatish, yiliga 500 million dollar valyuta tushumini ta‘minlash va 20 000 dan ortiq yangi ish o‘rinlarini yaratish imkoniyatini ko‘rsatdi. Taklif etilgan strategik yo‘nalishlar va amaliy tavsiyalarning izchil amalga oshirilishi Markaziy Osiyoni nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosda ham raqobatbardosh ta‘lim turizmi markaziga aylantirish imkonini beradi va mintaqaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

“Mintaqalarda talabalar turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari (Markaziy Osiyo mamlakatlar misolida)” mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmining nazariy-metodologik asoslari chuqur o‘rganildi, mintaqaviy talabalar oqimining joriy holati kompleks tahlil qilindi hamda ushbu sohani rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqildi. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga erishildi:

1. “Talabalar turizmi” tushunchasi akademik mobillik, madaniy singdirilish va shaxsiy rivojlanish komponentlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirildi. Taklif etilgan yondashuvga ko‘ra, talabalar turizmi faqat geografik ko‘chish emas, balki inson kapitalini shakllantirish, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va global kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida talqin qilindi. Ushbu konseptual yondashuv talabalar turizmini an‘anaviy turizm turlaridan farqlash va uning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini belgilash imkonini berdi.

2. Markaziy Osiyo mintaqasining global ta‘lim oqimidagi ulushi 2018-2024 yillarda 1,58 %dan 1,96 %gacha o‘sganligi aniqlandi. Biroq mintaqadan chiquvchi talabalar soni (320 ming nafar) kiruvchilardan (113 ming nafar) 2,8 barobar yuqori bo‘lib, 207 ming nafar sof manfiy balansni tashkil etmoqda. O‘zbekiston 150 ming nafar talaba bilan xorijda tahsil olayotganlar bo‘yicha dunyoda 3-o‘rinni egallaydi. Ushbu ko‘rsatkichlar mintaqada ta‘lim eksporti salohiyatini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

3. Gravitatsion model tahlili orqali mintaqaviy talabalar oqimining potentsiali va undan foydalanish darajasi baholandi. O‘zbekiston-Qozog‘iston yo‘nalishida potentsial oqimning atigi 24,7 %i, O‘zbekiston-Tojikiston yo‘nalishida esa 22,6 %i amalga oshirilgan. Qozog‘iston xalqaro akkreditatsiya bo‘yicha 85 % ko‘rsatkich bilan mintaqada yetakchi o‘rinni egallaydi. Bu natijalar mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish va o‘zaro tan olish tizimlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

4. Olib borilgan empirik tadqiqot natijasida talabalarning 51,2 %i moliyaviy jihatdan qaram bo‘lib, 75 %i jami daromadining 20 %idan kamini sayohatga ajratishi mumkinligi aniqlandi. Moliyaviy muammolar va xizmat narxi balandligi talabalar turizmini rivojlantirishdagi asosiy to‘siqlar sifatida belgilandi. Xavfsizlik va narx omillari hudud tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi. Shuningdek, talabalarning 48,3 %i universitet turizm dasturlarida umuman ishtirok etmaganligi aniqlandi.

5. STATA 15.0 dasturida o‘tkazilgan OLS regressiya modeli ($R^2=0,78$; $F=183,4$; $p<0,001$) orqali talabalar turizmiga ta‘sir etuvchi omillar miqdoriy baholandi. Xavfsizlik bahosi eng kuchli ta‘sir ko‘rsatuvchi omil sifatida aniqlandi.

Moliyaviy mustaqillik, xizmat narxi va universitet dasturlari ham statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega. Ilgari surilgan 8 ta gipotezadan 7 tasi tasdiqlandi ($H_1 - H_7$), faqat yosh ta'siri gipotezasi (H_8) rad etildi. SEM tahlili infratuzilma omillarining talabalar turizmiga eng kuchli ta'sir ko'rsatishini isbotladi.

6. Talabalar turizmini boshqarishning uch darajali (makro, mezo, mikro) tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Makro darajada davlat siyosati va me'yoriy-huquqiy baza, mezo darajada mintaqaviy hamkorlik va ta'lim muassasalari kooperatsiyasi, mikro darajada esa individual akademik mobillik dasturlari nazarda tutilgan. Raqamli platformalar orqali multiplikativ iqtisodiy samaraga erishish mexanizmi asoslanib, "Central Asian Student Pass" yagona raqamli identifikatsiya tizimi konsepsiyasi ishlab chiqildi.

7. Tanlab olingan 10 parametr bo'yicha o'tkazilgan qiyosiy tahlil natijasida talabalar turizmi 8,85 ball bilan eng yuqori strategik ustunlikka ega ekanligi isbotlandi. Taqqoslash uchun: madaniy turizm – 6,50 ball, biznes turizm – 6,55 ball, tibbiy turizm – 6,30 ball, ekologik turizm – 5,35 ball. Talabalar turizmining ustunligi ayniqsa inson kapitali rivojlanishi, barqarorlik va ijtimoiy kapital parametrlarida yaqqol namoyon bo'ldi.

8. Tadqiqot davomida 21 ko'rsatkichli Talabalar Turizmi Mobillik Indeksi (TTMI) metodologiyasi yaratildi. Indeks 5 ta subindeksni o'z ichiga oladi: siyosiy-institutsional ochiqlik (25%), iqtisodiy mavqelik (30%), ijtimoiy-madaniy integratsiya (20%), texnologik infratuzilma (15%) va huquqiy muhit (10%). Normalizatsiya formulasi va integral indeks formulasi asosida mamlakatlarning talabalar turizmi salohiyatini baholash imkoniyati yaratildi.

9. Dissertatsiyada 2030-yilga qadar talabalar soni prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi va "Markaziy Osiyo ta'lim korridori" marshruti loyihasi taklif etildi. Mintaqaviy hamkorlik mexanizmlari va investitsiya strategiyalari bo'yicha aniq tavsiyalar berildi. Ishlab chiqilgan prognoz natijalariga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasiga keluvchi xalqaro talabalar soni 2025-yildagi 163 700 nafardan 2030-yilga qadar 332 200 nafarga yetishi (2,03 baravar o'sish, yillik o'rtacha 15,2%), jumladan, O'zbekistonda eng yuqori dinamik o'sish sur'ati — 13 500 nafardan 41 800 nafarga (209,6% o'sish) kuzatilishi prognoz qilingan.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI
СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ
LIST OF PUBLISHED WORKS

I bo'lim (I часть; I part)

1. Akhrorova N.U. Student tourism development in Central Asia: comparative assessment of organizational frameworks. // Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. 2024, vol. 6(3), pp. 1182-1199. <https://doi.org/10.51699/cajtmf.v6i3.979>. ISSN 2660-454X, 47-60 bet. (08.00.00. OAK rayosatining 28.05.2024, 360-son qarori).

2. Axrorova N.U. Talaba va yoshlar sayohati turlari hamda uning xususiyatlari. // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2023-yil, №10/2 (107), 17-22-betlar. (08.00.00. OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori)

3. Axrorova N.U. Talaba va yoshlar sayohatining nazariy jihatlari hamda uni rivojlantirish strategiyalari. // "Iqtisodiyot va turizm" xalqaro ilmiy va innovatsion jurnali. 2024-yil, №3(17), 79-87-betlar. ISSN 2181- 2551. (08.00.00. OAK rayosatining 30.04.2022, 315/5 son qarori).

4. Akhrorova N.U. Strategic framework for the advancement of student tourism development. // "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024-yil, №3(9), 540-545-betlar. ISSN 2982- 8982. (08.00.00. OAK rayosatining 01.04.2023, 336/3 son qarori).

5. Axrorova N.U. Talabalar turizmi integratsiya indeksi: Qozog'iston va O'zbekiston bo'yicha 2023-yil tahlili. // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. 2025-yil, 12-son, 662-676-betlar. ISSN 2181-4430. (08.00.00. OAK rayosatining 29.12.2023, 347/5-son qarori).

6. Axrorova N.U. Markaziy Osiyo talabalar turizmini rivojlantirish: Yevropa Ittifoqi tajribasi va iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari. // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil ilmiy-elektron jurnali. 2025-yil, Jild 3, №8, 12-24-betlar. (08.00.00.OAK rayosatining 29.12.2023,347-son qarori).

7. Akhrorova N.U. Potential benefits of the integration of student tourism with other types of tourism and travel. // Talabalar va yosh olimlarning "GYLYM JÁNE BILIM - 2024" 19-Xalqaro ilmiy konferensiyasi. 2024-yil, 12-aprel, Qozog'iston, 4761-4763-betlar.

8. Akhrorova N.U. Challenges and opportunities in organizing student tourism programs. // "Ipak yo'li: turizm prizmasi orqali hamkorlik" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil, 10-11-oktabr, O'zbekiston.

9. Akhrorova N.U. Student tourism and its impact on local economies. // "Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashning dolzarb masalalari va hududlarni mutanosib rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil, 25-may, Buxoro, O'zbekiston, 219-220-betlar.

10. Axrorova N.U. Talabalar turizmining sayohat va turizmning boshqa turlari bilan integratsiyalashuv jarayonlari. // "Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2024-yil, 14-15-iyun, Termiz, O'zbekiston, 317-319-betlar.

II bo'lim (II часть; II part)

11. Axrorova N.U., Ibragimov N.S. Talabalar turizmini rivojlantirishda marketing strategiyalaridan foydalanish. // “TAFAKKUR VA TALQIN” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman. 2024-yil, 15-may, Buxoro.

12. Akhrorova N.U. The role of universities in fostering student tourism: collaborative approach. // “Orol bo‘yi mintaqasida iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar, an‘analari va innovatsiyalar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024-yil, 25-may, Nukus, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 174-177-betlar.

13. Axrorova N.U. Talabalar turizmi tushunchasining mazmun-mohiyati va nazariy asoslari. // “O‘zbekistonda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish istiqbollari, muammo va yechimlari” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025-yil, 2-3-iyun, Namangan, 116-120-betlar.

14. Axrorova N.U. Markaziy Osiyo mamlakatlarida talabalar turizmiga ta’sir etuvchi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili. // “Rekreasion resurslarni baholash va turistik marshrutlarni xaritalash: ilmiy-uslubiy yondashuvlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani. 2025-yil, 18-aprel, Buxoro, 42-46-betlar.

15. Akhrorova N.U. Yoshlar va talabalar sayohatining o‘ziga xos xususiyatlari. // International Interdisciplinary Scientific Conference “Digitalisation and Sustainability for Scientific Deployment: Economic, Social, and Medical Aspects”. 2023, pp. 33-35.

16. Akhrorova N.U. Market segmentation and innovation in student tourism: a path to competitive advantage. // “Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2024-yil, 15-iyun, Buxoro, O‘zbekiston, 274-278-betlar.

17. Akhrorova N.U. Organizational aspects of student tourism in Central Asia: visa policies for student mobility. // “Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil, 24-oktabr, Toshkent, O‘zbekiston, 572-576-betlar.

18. Axrorova N.U. Markaziy Osiyo mintaqasida talabalar turizmining shakllanishida siyosiy jihatlarining tahlili. // “O‘zbekistonda turizm faoliyatini raqamlashtirishning asosiy yo‘nalishlari va samaradorligini oshirish yo‘llari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2025-yil, 20-may, Toshkent, 556-562-betlar.

19. Axrorova N.U. Talaba shaharlar reytingi va xalqaro talaba turizmi oqimlari o‘rtasidagi korrelyatsiya: 2021-2025 yillar panel ma’lumotlari tahlili. // “Jahon sivilizatsiyasida Buxoroning o‘rni: boy meros, barqaror rivojlanish, yorqin kelajak” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2025-yil, 9-10-sentabr, Buxoro, 934-941-betlar.

20. Axrorova N.U. Yoshlar migratsiyasi va talabalar turizmi: mintaqaviy integratsiya imkoniyatlari. // “Sivilizatsiyalararo muloqot: tarixiy tajriba va zamonaviy xalqaro munosabatlarda falsafiy yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025-yil 27-sentabr, Toshkent shahri. 138-141-betlar.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.I.08.03 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И
КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ «ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ»**

АХРОРОВА НИЛУФАР УКТАМОВНА

**ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ
РАЗВИТИЯ СТУДЕНЧЕСКОГО ТУРИЗМА В РЕГИОНАХ
(НА ПРИМЕРЕ СТРАН ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ)**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ

**ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ
(PhD) ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована за номером B2023.4.PhD/Iqt3661 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия «Шелковый путь».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Ибрагимов Нутфилло Салимович,
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кадилов Азиз Анварович,
доктор экономических наук, профессор

Мирзаев Абдулла Тапилович,
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов 5.06. 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.I.08.03 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (220114, г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел: (99 865) 221-26-46, факс.: (99 862) 224-57-00, электронная почта: info@buxdu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за №.....). (Адрес: г.Бухара, ул. М. Икбол, 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, электронная почта: info@buxdu.uz)

Автореферат диссертации разослан « » _____ 2026 года
(реестр протокола рассылки № 3/26 от «19» 05 _____ 2026 года)



О.Х. Камидов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

Д.Ш. Ямуров
Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

Б.Н. Навруз-зола
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней,
д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации.

На мировом уровне студенческий туризм в регионах сформировался как сложная организационно-экономическая система, выступающая стратегическим инструментом местного экономического развития и международной образовательной интеграции. По данным 2024 года, прямые инвестиции, привлекаемые посредством студенческого туризма в регионах мира, достигли 89,3 миллиарда долларов США в год. В глобальном масштабе сегмент регионального студенческого туризма составляет 127 миллиардов долларов местных туристических доходов, или 31% всего образовательного экспорта в регионах²². Студенческий туризм в мировых регионах отличается от традиционных форм путешествий такими особенностями, как долгосрочное пребывание, глубокая интеграция с местным населением и непосредственное влияние на развитие региональных экономических кластеров.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на выявление особенностей и тенденций развития студенческого туризма, в частности, на устойчивое развитие экономики территорий посредством эффективного управления студенческим туризмом. В этом направлении приоритет отдаётся исследованиям, направленным на создание глобальной инфраструктуры студенческого туризма, повышение уровня готовности регионов к организации студенческого туризма, привлечение целевой аудитории студентов-туристов путём диверсификации направлений студенческого туризма, а также на оценку перспективных показателей потока студентов в университетах и образовательных центрах, выявление проблем, являющихся препятствиями в данной сфере, и разработку на этой основе эффективных организационно-экономических решений.

В Новом Узбекистане имеется достаточный потенциал для развития молодёжного туризма, и для его последовательного развития реализуется ряд мероприятий. В частности, в рамках программы «Путешествуй по Узбекистану», принятой на 2022–2026 годы, определены важные стратегические задачи по увеличению числа местных туристов свыше 12 миллионов человек и доведению числа иностранных туристов до 9 миллионов человек²³. Для реализации данных задач особую актуальность приобретает развитие субсегмента молодёжного туризма — студенческого туризма, совершенствование его организационных и экономических механизмов, повышение привлекательности молодёжных дестинаций, создание научно обоснованных туристических кластеров, разработка инновационных услуг и инвестиционных моделей. В этом направлении гармонизация государственной политики с научными исследованиями, привлечение в отрасль частного сектора и международных партнёров способствует повышению региональной конкурентоспособности.

²² <https://www.weforum.org/publications/travel-tourism-development-index-2024/in-full/6-regional-results/>,
<https://finance.yahoo.com/news/educational-tourism-market-expected-reach-185600696>.

²³ https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит выполнению задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан: №УП-87 «О мерах по повышению роли и значения туризма в экономике путём резкого увеличения потока туристов и интенсивного расширения объёма туристических услуг в 2025–2026 годах» от 15 мая 2025 года, №УП-102 «О дополнительных мерах, направленных на улучшение туристической инфраструктуры и дальнейшее увеличение потока иностранных туристов в Республике Узбекистан» от 18 июля 2024 года, №УП-232 «О дополнительных мерах по диверсификации услуг внутреннего туризма» от 30 апреля 2022 года, №УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» от 28 января 2022 года, №УП-5611 «О дополнительных мерах по ускоренному развитию туристической отрасли» от 5 января 2019 года; Постановлениях Президента Республики Узбекистан: №ПП-269 «О мерах по совершенствованию системы подготовки кадров в сфере туризма» от 11 сентября 2025 года, №ПП-358 «Об утверждении Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года» от 14 октября 2024 года, №ПП-794 «О мерах по комплексному социально-экономическому развитию Бухарской области в 2019–2023 годах» от 21 сентября 2019 года; Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан: №ПКМ-543 «О мерах по дальнейшему развитию сферы туризма в Бухарской области в 2022–2026 годах» от 28 сентября 2022 года, №ПКМ-215 «О дополнительных мерах по комплексному социально-экономическому развитию Бухарской области и дальнейшему повышению уровня жизни населения в 2022–2026 годах» от 27 апреля 2022 года, №ПКМ-433 «О мерах по созданию благоприятных условий для восстановления и развития сферы туризма в Республике Узбекистан» от 10 июля 2020 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере деятельности.

